

**ENERGIYA RESURLARINI TRANSCHEGARAVIY TASHISH:
XALQARO HUQUQIY NORMALAR VA AMALIYOT**

Mansurova Mahbuba

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va siyosiy

huquqshunoslik” fakulteti

1-bosqich talabasi

E-mail: mahbubamansurova18@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola energiya resurslarini transchegaraviy tashishni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy normalarni, ularning amaliy qo'llanilishidagi muammolar va yechimlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada tranzit tashishning huquqiy jihatlari, nizolarni hal qilish mexanizmlari, xalqaro shartnomalar va mintaqaviy tashkilotlarning roli, shuningdek, sohadagi dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar : energiya resurslari, transchegaraviy tashish, Energetika Xartiyasi, xalqaro arbitraj, tranzit, energiya xavfsizligi.

Kirish. Mavzuga kirishdan oldin energiya resurslarini transchegaraviy tashish nima ekanligini ko'rib chiqsak. Energiya resurslari - bu insoniyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun energetik potensialga ega bo'lgan tabiiy moddalar va ularni qayta ishlash mahsulotlaridir. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) energiya resurslarini quyidagicha tasniflaydi:¹ "Energiya resurslari - energetik xususiyatga ega bo'lgan va energiya ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha tabiiy va qayta ishlangan moddalar (neft, tabiiy gaz, ko'mir, bioyoqilg'i, uran va boshqalar)".

Transchegaraviy tashish - bu energiya resurslarining bir davlat hududidan ikkinchi davlat hududiga yoki bir qancha davlatlar hududi orqali tranzit tarzida uzatilishidir. Energetika Xartiyasining 7-moddasida transchegaraviy tashish quyidagicha ta'riflangan: "Energiya mahsulotlarining va materiallarining bir davlat

¹ International Energy Agency, 2022.
SJIF: 5.051

hududidan boshqa davlat hududiga yoki bir nechta davlatlar hududi orqali tranzit qilinishini o'z ichiga olgan har qanday tashish, shu jumladan quvur liniyalari, elektr uzatish liniyalari va boshqa transport vositalari orqali amalga oshiriladigan tashish"² Transchegaraviy energiya tashish global energiya xavfsizligi, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro hamkorlikning asosiy omilidir. Bu nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ahamiyatga ham ega bo'lib, davlatlar o'rtasidagi strategik munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolaning maqsadi energiya resurslarini transchegaraviy tashishni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy normalarni va ularning amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilishdan iborat.

Transchegaraviy energiy resurslarini tashish ko'pincha davlatlar orasida muommolarga sabab bo'lib kelmoqda. Bunga misol qilib 2009-yilgi gaz inqirozi davomida Rossiyaning Ukraina orqali gaz yetkazib berishni to'xtatishini olishimiz mumkin. 20 kun davomida gaz yetkazib berilmagan (1-20 yanvar)³. Tatqiqotlarga ko'ra 20 kun davom etgan bu inqiroz 18 mamlakatga ta'sir ko'rsatgan va Yevropaga kuniga 200 million yevrodan ortiq zarar ko'rgan.⁴

Energiyani transchegaraviy tashish infratuzilmasi ko'p hollarda eskirgan va xavfsizlik tahdidlariga duchor. Xalqaro Energiya Agentligi ma'lumotlariga qaraganda dunyo bo'yicha gaz quvurlarining 45%i 40 yildan ortiq muddat davomida xizmat qilgan. Bu holat atrof- muhit va aholi xavfsizligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda quvurlarning 30% qismi texnik jihatdan eskirgan.⁵ 2010-2013 – yillarda transchegaraviy energiya tashish tizimida 500 dan ortiq katta va kichik hodisalar qayd etilgan.⁶ Bu borada “ Energetika

² Energy Charter Treaty, Article 7, 1994).

³ Irani, S. (2018). "The 2009 Russia-Ukraine Gas Dispute: A Comprehensive Analysis". *Oxford Energy Institute*, 45-67.

⁴ European Commission. (2009). "Impact Assessment of the Russia-Ukraine Gas Dispute". EU Energy Security Report.

⁵ IEA. (2023). "World Energy Infrastructure Report".

⁶ UNECE. (2024). "Energy Transportation Safety Statistics".

Xartiyasi”ning o‘rni juda muhim chunki , statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki 1994-yildan buyon 54 ta davlat bu shartnomani ratifikatsiya qilgan. 85% hollarda nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga muvaffaq bo‘lingan.⁷ Energiya resurslarini muvaffaqiyatli uzatish bo‘yicha “BMT Dengiz Huquqi Konvensiyasi (UNCLOS) ning ham ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Sababi bu konvensiyaga 168 davlat a‘zo va 45 ta dengiz energetika nizosini hal qilgan va 12 ta suv osti quvuri loyihasini tartibga solgan.⁸

Arbitraj turi	Ishlar soni	Muvaffiqiyat darajasi	O‘rtacha davomiyligi
Davlat-davlat	25	60%	2.5 yil
Investor-davlat	45	72%	3.2 yil
Kompaniya-kompaniya	15	80%	1.8yil

Xalqaro Arbitraj va nizolarni hal qilish . Xalqaro Arbitrajning 2000-2023 – yillardagi natijalari : ⁹

Bularning barchasini tartibga solish uchun bir qancha ittifoq va energiya bozori qo‘llanilgan. Birinchisi Yevropa Ittifoqi Energiya Bozori ma’lumotlari bilan tanishib chiqamiz.¹⁰ Bozordagi raqobat 76% ni , investitsiya o‘sishi 45%ni tranzit shaffofligi esa 89 % ni tashkil etadi.¹¹ Ikkinchisi esa Yevrosiyo Iqtisodit Ittifoqini integratsiya darajasi bo‘yicha ko‘ramiz. Standartlashish 58% ni , birlashgan enaergetika bozori 65% ni Tranzit qoidalari birlashganligi 72 % ni tashkil etadi. Energiya resurslarini transchegaraviy tashishda asosan duch kelinadigan muommolar. Konstitutsion qiyinchiliklar. Tatqiqotlarga qaraganda dunyo bo‘yicha

⁷ Energy Charter Secretariat. (2023). "ECT Dispute Settlement Overview".

⁸ UNCLOS Annual Report (2023).

⁹ ICC International Court of Arbitration (2024).

¹⁰ Direktiva 2009/73/EC asosida.

¹¹ European Commission Energy Directorate (2023).

40% davrlarlarda xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilishda konstitutsion muommolar mavjud. Undan tashqari 25 ta davlatda energetika resurslari ustidan suverinetitet masalalari hal etilmagan. Ular orasidagi maxsus holatlar Argentina va Venesuelada bo'lgan. Argentinada 2002-yilda energetika shartnomalarini bir tomonlama bekor qilishgan. Venesueleda esa 2007-yilda neft sanoati millatlashtirilgan.¹² Endi muommolarni ko'rib chiqsak : tranzit ta'riflarin hisoblash metodologiyasining yagona emasligi , neft differnsiya¹³ sining noaniqligi (

Gazprom vs. Naftogaz: 2018-yilda 2.6 milliard dollar miqdoridagi nizo)¹⁴ , zaxira quvurlaridan foydalanish qoidalarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi.

Xavfsizlik standartlarining qiyosiy tahlili :

Yevropa Ittifoqi: 15 ta texnik standartlar to'plami

MDH da : 8 ta standart

Janubiy-Sharqiy Osiyo : 5 ta asosiy standart.

Muommolar:

Standartlarni o'zaro tan olish darajasi : 45%

Tekshiruv protokollarining mos kelmasligi : 60%¹⁵

Keltirib o'tilgan muommolar uchun bir qancha yechimlar va takliflar bor.

Qisqa muddatli choralar :

1.Arbitraj qarorlarini ijro etishni kuchaytirish

Ijro etish reytingini joriy qilish

¹² ICSID Case Studies 2023.

¹³ **Differensiatsiya** (frans. differentiation, lot. differentia — farqlanish, farq), ixtisoslashish — dastlab bir xil elementlardan iborat bo'lgan sistemaning sifat jihatidan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishi.

¹⁴ Energy Charter Treaty Case Law Analysis.

¹⁵ ISO Energy Standards Report 2023.

Sanksiyalar tizimini takomillashtirish

2. Qonunchilikni uyg'unlashtirish

Model qonunlar ishlab chiqish

Texnik yordam dasturlarini kengaytirish

Uzoq muddatli strategiya

1. Institutsional islohotlar

Xalqaro energetika sudini tashkil etish

Birlashgan monitoring tizimini yaratish

2. Texnologik yechimlar

Blockchain asosidagi aqlli shartnomalar

Real vaqt rejimida monitoring tizimlari ¹⁶

Energiya resurslarini transchegaraviy tashishni tartibga solish zamonaviy xalqaro huquqning eng murakkab va dolzarb masalalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada Energetika Xartiyasi Shartnomasi, BMT Dengiz Huquqi Konvensiyasi va mintaqaviy tashkilotlarning qonunchilik hujjatlari asosiy huquqiy mexanizm vazifasini o'tamoqda.

Transchegaraviy energiya tashish bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda, jumladan:

- Infratuzilmaning eskirganligi va xavfsizlik tahdidlari
- Davlatlar o'rtasidagi konstitutsiyaviy qiyinchiliklar
- Nizolarni hal qilish mexanizmlarining yetarli samaradorligi
- Standartlar va qoidalarning o'zaro tan olinmasligi

Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar samarali hisoblanadi:

- Arbitraj qarorlarini ijro etishni kuchaytirish

¹⁶ World Energy Council Reform Proposals 2024.
SJIF: 5.051

- Qonunchilikni uygʻunlashtirish va model qonunlar ishlab chiqish
- Zamonaviy texnologiyalarni (blockchain, monitoring tizimlari) joriy etish

- Xalqaro energetika sudi kabi yangi institutlarni yaratish

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shaffoflikni oshirish va texnologik yangiliklarni joriy etish orqali energiya resurslarini transchegaraviy tashishning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash mumkin. Bu nafaqat mintaqaviy, balki global energiya xavfsizligini mustahkamlaydi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Energy Agency, 2022.
2. Energy Charter Treaty, Article 7, 1994).
3. Irani, S. (2018). "The 2009 Russia-Ukraine Gas Dispute: A Comprehensive Analysis". Oxford Energy Institute, 45-67.
4. European Commission. (2009). "Impact Assessment of the Russia-Ukraine Gas Dispute". EU Energy Security Report.
5. IEA. (2023). "World Energy Infrastructure Report".
6. UNECE. (2024). "Energy Transportation Safety Statistics".
7. Energy Charter Secretariat. (2023). "ECT Dispute Settlement Overview".
8. UNCLOS Annual Report (2023).
9. ICC International Court of Arbitration (2024).
10. Direktiva 2009/73/EC asosida.

11. European Commission Energy Directorate (2023).
12. ICSID Case Studies 2023.
13. Differensiatsiya (frans. differentiation, lot. differentia — farqlanish, farq), ixtisoslashish — dastlab bir xil elementlardan iborat boʻlgan sistemaning sifat jihatidan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishi.
14. Energy Charter Treaty Case Law Analysis.
15. ISO Energy Standards Report 2023.
16. World Energy Council Reform Proposals 2024.